

## **MUHAMMADNING MUHABBATI**

**Gulrux Ravshanova**

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyot universiteti. Adabiyotshunoslik (zamonaviy o'zbek adabiyoti ) fakultetini 1-kurs magistranti

*“ ... Yuraklarda yuragimni  
Oh,oldindan bilgan qush,  
Har o 'zbekning yuragini  
O'ziniki qilgan qush”*

**Anotatsiya.** Mazkur maqolada har birimizning qalbimizni munavvar tuyg‘ulari bilan nurlantirib , ezgulikka undovchi o‘zbek she’riyatining ajoyib shoiri Muhammad Yusuf ijodi xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Vatan, mehr –oqibat,ona, kiyik , xalq, qizg‘aldoq, yo‘rgak , yalpiz , qishloq.

Muhammad Yusuf o‘zining beg‘uborligi, soddadil, kamtarin va pokiza qalbi, samimiyo so‘zi va o‘zigagina yarashadigon she’riyati bilan el nazariga tez tushgan o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri hisoblanadi.

Shoir

o‘ziga xos usuli va so‘zi orqali boshqa o‘zbek shoirlaridan ajralib turadi.Muhammad Yusuf onasi Enaxon aya ta’biri bilan aytganda “Yoshligidan juda o‘jar ,o‘ta qaysar , doim o‘z aytganidan qolmaydigon va o‘ta mehribon bola “ bo‘lgan.Bu fikrning isboti o‘laroq «Men o‘z bilganimdan qolmadim» she’rida she’r va shoirlikni shunday anglaydi.

Quvroq bo‘l deyishdi. Yolg‘on ham kerak,  
Jindak xushomad ham, qulq solmadim.

Oqni oppoq ko‘rdim, qorani - qora  
Men o‘z bilganimdan qolmadim.

(O‘zbek milliy adabiyotining ko‘zga ko‘ringan iste’dodli shoirlaridan biri Muhammad Yusuf 1954 -yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumani, Qovunchi qishlog‘ida oddiy oilada tavallud topdi. O‘rta maktabni tugatgandan so‘ng Respublika Rus tili va adabiyoti institutini (1978) tamomladi. 1978-1980-yillarda Respublika Kitobsevarlar jamiyatida, 1980-1986 -yillarda «Toshkent oqshomi» ro‘znomasida, 1986—1992-yillarda esa G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida, va «O‘zbekiston ovozi» ro‘znomasida faoliyat ko‘rsatdi. U o‘nga yaqin she’riy to‘plamlarning, o‘nlab qo‘shiqlarning muallifi sifatida keng kitobxonlar qalbiga kirib ulgurgan. Uning dastlabki she’rlari birinchi bor «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» ro‘znomasida 1976- yilda chop etilgan. Shundan so‘ng «Tanish teraklar” (1985), «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo” (1988), «Uyqudagil qiz» (1989) «Halima enam allalari” (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko‘nglimda bir yor” (1990), «Bevafo ko‘p ekan» (1991), «Erka kiyik» (1992) kabi jozibali she’riy to‘plamlari nashr etildi. 1989 yilda esa «Uyqudagil qiz» nomli she’riy to‘plami uchun unga Respublika Yoshlar mukofoti berildi. U rostgo‘y shoir, halol va pokiza qalb egasi. Shuning uchun ham uning she’riyati butun ma’naviyatga to‘la, muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo‘shiq to‘qiydimi yoki tariximiz, taqdirimiz haqida kuylaydimi hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi.Uning she’rlari oddiy, ravon, soddaligi bilan xalq og‘zaki ijodiga hamohang ko‘rinadi. Shoirning «Mehr qolur» she’rini eslangu-a:

Anor sening yuzlaring, suluv,  
Xumor sening ko‘zlarling, suluv,  
Yodda qolmas so‘zlarling suluv,  
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Shoir she’riyati ham shunday,mehringizda, qalbingizda qo‘shiq bo‘lib qoladi. Ona diyor va istiqlol kuychisi Muhammad Yusuf noyob iste’dod egasi, mehribon, sofdir, mard va kamtarin inson edi . Muhammad Yusuf bolalik chog‘larida sho‘x yigit bo‘lib, ko‘p narsalarga qiziqqan, yuragida muhabbat, tomirlarida oqayotgan qonning jo‘shqinligi uning she’rlarida yaqqol namoyon bo‘ladi )

( O‘zbekiston Qahramoni , O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shoirni shunday eslab o‘tadi. ”Muhammad Yusuf pokiza inson edi. U odamlarning esini og‘dirgon, o‘ylatgan, kuldirgan,yig‘latgan, topgan tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi” – deydi). Bugun adabiyot sahnasida o‘z so‘zini aytayotgan va xalqimiz orasida go‘zal she’rlari bilan she’riyat ixlosmandlariga manzur kelayoyotgan shoirlarimiz ham talaygina ammo bu borada Muhammad Yusufdek benazir qalb egasining o‘rni alohida ekanligni e’tirof etish joizdir. Bugun xalqimizning sevimli xonandalari G‘iyos Boytayev , Muhriddin Xoliquv , Yulduz Usmonovalar shoir she’riyati bilan o‘z vaqtida ma’lum va mashhurlik cho‘qqisiga chiqqanligi barchamizga ayondir.

Oq yo‘rgakka o‘ragansan o‘zing bizni

Oq yuvib oq taragansan o‘zing bizni

Beshigimiz uzra bedor ona bo‘lib

Kunimizga yaragansan o‘zing bizni.

Vatan, ona bu ikki tushuncha bir –birini to‘ldirib turadigan, birini ikkinchisiz ayro tasavvur qilib bo‘lmaydigan ulug‘ ne’mat hisoblanadi. Adabiyot sahnasida mashhurlik cho‘qqisidan tashqari chin ma’noda elning sevimli farzandiga aylanishning o‘ziga yarasha qiyinchiligi va albatta zavqi boshqacha . Shunday ekan Muhammad Yusufni she’riyat maydonida o‘z o‘rni va o‘z yo‘nalishi bo‘lganligini bot-bot takrorlashdan aslo charchamaymiz. To‘g‘ri , shoir she’riyat degan go‘zal bir olamga o‘zgacha yo‘nalish yoki o‘zgacha uslub olib kirmagan lekin uning so‘zлari juda ta’sirli edi. U “peshonasi yo‘q qizg‘aldoq”dan tortib “ko‘zi to‘la yosh jayron”gacha so‘zлarni satlarga xuddi ko‘zmunchoqdek terib ishlatgan shoir edi. Shoirning she’rlarini tushunish uchun alohida ma’lumot yoki ilm ahli , adabiyot vakili bo‘lishi shart emas uning she’rlarini har qanday davralarga o‘zgacha ruh olib kirishi har qanday yuraklarni larzaga keltira olishi bilan ajralib turadi. Adabiyot maydonini katta gulzorga qiyoslasak, Muhammad Yusuf shu gulzorning erka bulbuli edi . Bugungi kunda uning she’rlari kirib bormagan birorta o‘zbek xonadoni , uning she’rlari-la boshlanmagan birorta davra suhbatlari bo‘lmasa kerak. Shoir qay mavzuga qo‘l urmasin uni shunchaki yozib qo‘ymaydi, she’rini farzandidek suyib, erkalab kezi kelganda muhabbat, mehribon onasi , munis singlisidek e’zozlab Vatanga muhabbatini yuksaklarga ko‘tarib, juda chiroyli tashbihlar bilan ifoda qiladi. Shoir she’riyatining asosiy qismini Vatanga muhabbat tuyg‘usi hissi egallaydi. Ijodkor vatanni kuylar ekan yurtimizning so‘lim bog‘lari, osmono‘par minorlarini, chiroyli ko‘chalarini emas balki, keng dalalar, sokin qishloq , yaylovlar, tog‘lar, olis qishlog‘ining soddadil ,tanti ,o‘zbek xalqining kamtarin hayat tarzini kuylashni lozim deb topadi. Shoirning she’rlarini o‘qib, bu inson o‘zbekning erka ,vatanparvar, o‘z yurtini boricha sevishi chin farzandi bo‘lganligini anglash mumkin.

O, ota makonim ,

Onajon o‘lkam,

O‘zbekiston, jonim to‘shay soyanga.

Senday mehribon yo‘q ,

Seningdek ko‘rkam.

Rimni alishmasman bedapoyanga.

Birgina misra, “O, ota makonim, onajon o‘lkam” shu oddiy so‘zлarning zamirida qancha mehr- muhabbat anglash mumkin. Shoir go‘zallik va mehrni faqat shu yurtda, shu bepoyonlarda ko‘radi. Bugun go‘zallik axtarib dunyoning ne-ne burchaklarida tentirab yurgan kimsalarga shu satrlarni o‘qib bergim keladi ba‘zida. Dunyo darvozasini ochib butun insoniyatni o‘z bag‘riga chorlayotgan Rim ,Italiya kabi go‘zalligi va boshqa ta’riflari bilan ma’lum-u mashhur mamlakatlarni shoir, keyingi misralarida bitta tandiriga ham alishmasligini keltirib o‘tadi.

Ko‘rdim, suluvlarning eng faranglarin

Yo xudbinman, yo bir kasman men.

Parijning eng go‘zal restoranlarin

Bitta tandiringga alishmasman men.

Biz yuqorida shoirni tanti va soddadilligini ko‘p ta’kidlab o‘tdik. Yuqoridagi misralarida o‘zini go‘zallikni ko‘rolmayotgan bir xudbin yoki bir kasdurman, ammo ularning hech biri bitta o‘zbegimning tandiriga alisholmasligini sodda qilib aytib o‘tadi. Muhammad Yusufning vatanga bo‘lgan muhabbatini

qanchalik yuqori ekanaligini deyarli barcha she'rlarida kuzatishimiz mumkin. Birgina "Ko'hna dunyo" she'ridagi so'zlarida ham fikrimizni nihoyatda o'z aksini topganligini ko'rish mumkin.

Ko'hna tolbeshikdan  
Boshlanagan olam  
Senga iddaolar  
Qilmay sevaman  
Bir kuni onam deb,  
Bir kuni singlim  
Vatan!  
Kimligingni  
Bilmay sevaman!

Mana, haqiqiy sevgi , haqiqiy muhabbat ! Bundan ortiq bo'lishi mumkinmi ? Yo'q , aslo bundan ortiq vatanni sevish mumkin emas edi. (Muhammad Yusuf o'z izhorini "Vatanim, seni sevaman . Yurtim , sen uchun jonimni fido qilaman " demaydi soddagina qilib "bir kuni onam deb, bir kuni singlim. Vatan,kimligingni bilmay sevaman") deb qo'ya qoladi. Muhammad mana shu sevgisi bilan Abdulla Oripov, Iqbol Mirzo, Ruf Parfi kabi boshqa shoirlardan ajralib turar edi. Bunday muhabbat faqatgina yuksak qalb sohiblaridagina bo'lishi mumkin aslida. Shoирга xalqimiz tomonidan "Yuksak qalb egasi", "O'zbekning erka farzandi " degan nisbatlarning berilishi o'z-o'zidan berilib qolmaganligini anglashimiz qiyin emas. ( Muhammad Yusuf muhabbat haqida yozar ekan bu tuyg'uni goh vatanga goh yorga mengzab kuylab o'tadi. Muhabbat tuyg'usi aslida juda keng ma'noda qo'llanadigan ilohiy bir tuyg'u bo'lib uni har kim o'zicha tushunadi va o'zicha anglab yetadi. Bu tuyg'u shoirlar tilida o'zgacha namoyon bo'lsa, san'atkor tilida ham boshqacha jarang topadi.

Muhabbat , ey go'zal iztirob  
Ey ko'hna dard , ey ko'hna tuyg'u  
Ko'kragimga boshingni tirab,  
Yuragimni to'kib qo'yding-ku.

Muhabbat go'zal va yoqimli iztirob ekanligini biz "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" kabi ilohiy ishq shaydolarini ismlarini zikr etib o'tishimizning o'zi shoirning fikri nechog'lik haqiqat ekanligini ochib beradi). Rostdan ham bu tuyg'u kimning boshiga tushmasin shoh bo'lsa gadoga , gadoni esa faqirga aylantirishini yaxshi anglaymiz. Aslida bu satrlarga izoh lozim emas, ammo sevgi haqida kim mulohaza yuritishni istamaydi deysiz. Shoир she'riyatida yuksak ma'no va o'ziga xosligi xalqonaligi bilan ahamiyatli bo'lib uning she'rlari davralarda yangraganda she'riyat shaydolaridan farqli o'laroq ular oddiy xalq balki siyosatchi, iqtisodchi bo'lmasin she'rdagi ohang va so'zlarning ta'sirchanligini his qilib bor vujudini qulqoqa aylantirishlari haqiqatdir.

Adabiyot shunday bir boshqa olamki unda yurishning , o'sha olamning borligini his qilishning o'zi olam, olam baxtdir. O'zbek adabiyoti sahnasida Muhammad Yusufdek benazir shoirning yashab, ijod qilib o'tgani va bugungi avlodga o'lmas meros qoldirib ketgani o'zbek xalqining tom ma'nodagi baxti ekanligi barchaga ayon. Garchi bu inson bugun oramizda bo'lmasa-da Muhammad Yusuf degan nomi barhayot ekanligi shoirning xotirasiga g'urur baxsh etadi.

Sodda Muhammadman ,  
Sodda Muhammad –  
Turkman qizni maqtab baloga qoldim  
Ko'ylagiga havas qilgandim faqat ,  
Toabad tunganmas g'avg'oga qoldim.

Ha Muhammad Yusuf har qanday narsadan go'zallikni ko'ra olgan benazir o'zbekning haqiqiy erka farzandi edi.

#### **Adabiyotlar ro'yhati:**

1. Muhammad Yusuf "Saylanma" "Sharq" nashriyoti –matbaa uyi. Toshkent -2017

2. Zamondoshlar xotirasida Toshkent -2019

Internet ma'lumotlari.

Muhammad Yusuf. "Xalq bo'l elim" to'plami Toshkent -2019

Muhammad Yusuf "Quyoshga qarab oqqan suv" G'afur G'ulom nashriyot uyi  
Toshkent -2018

5.ToshDO'TAU maqolalar to'plami.